



Namangan viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-mart dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 309 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 79 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 230 tani tashkil qildi.


2025- yilning yanvar-mart oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 5 280,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 110,8 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 521,9 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 166,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 4 758,6 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 753,5 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 113,3 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 533 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 25 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 508 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-mart oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 003,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 14,5 % ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 2 992,4 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,3 % ga to'g'ri keldi. viloyatdagi jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 74,7 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar Pop (3,5 m.), Norin (167,8 %), Namangan shaxar (133,6 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 173 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 168 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-mart oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 4 206,7 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 104,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 88,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.